



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 528 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxonov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
<i>Gulmonova Guli Anvar qizi</i>	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
<i>Yuldashev Xusniddin Abdullayevich</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
<i>Bozorova Muxlisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
<i>Qarshibayeva Dilduza Xidirbayevna</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
<i>Alimov Azim Anvarovich</i>	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
<i>Burtshova Aliya Burxonovna</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
<i>Nazarova Vazira Bahron qizi</i>	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
<i>Shodmonova Munisa Furkatovna</i>	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
<i>Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna</i>	
Jamoat transporti haydovchilarining psixoemotsional barqarorligini shakllantirishning nazariy-psixologik asoslari.....	369
<i>Ruzimatova Gulbaxor Adiljanovna</i>	
Игровые технологии как средство развития речевой активности детей с тяжёлыми нарушениями речи.....	375
<i>Шакирова Ситора Абдугануровна</i>	
Qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchi talabalarda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari.....	380
<i>Jo'rayev Nodirbek Nutfillo o'g'li</i>	
Ценностно-смысловой потенциал поэзии Анны Ахматовой в формировании языковой личности и духовно-нравственном становлении учащихся: методический аспект	385
<i>Жабборовна Гулчехра Жобириева</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida geoaxborot tizimlarini o'qitishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari...	391
<i>Iskandarov Bayimbet Sobir o'g'li</i>	
O'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish yo'nalishlari	395
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish	399
<i>Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi</i>	
O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	404
<i>Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda kognitiv strategiyalardan foydalanish metodikasi	409
<i>Sharopova Zarnigor Tolib qizi</i>	
Assessment for Learning and Assessment of Learning: Formative and Summative Approaches in Foreign Language Education in Uzbekistan.....	415
<i>Ramazonova Feruzaxon Akbarovna</i>	
Aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiyadan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	420
<i>Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna</i>	

Umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarning raqobatbardoshligini baholash va samarali boshqarishning qiyosiy tahlili	425
Uzakbayeva Raxima Xojabayevna	
Nemis tilida so'zlashuvchi davlatlar va nemis adabiy tili tarixi	430
Adham Berdimurodov Musurmonovich	
Xorijiy andragogik yondashuvlarni kasbiy ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari	434
Yusupov Ulug'bek Kamalovich	
The Power of Intercultural Competence in Global Communication.....	439
Serdaliev Baxitli Xaydarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarning badiiy tafakkurini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish metodikasi	443
Matrizayeva To'maris Jumamirat qizi	
Raqamli ta'lim transformatsiyalashu-vining pedagogik mazmuni va zamonaviy tendensiyalari.....	449
Turdaliyeva Nurjahan Abdunosir qizi	
Pedagogik ta'lim tizimida raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni.....	457
Boymirzayeva Shanoza Olimjon qizi	
The Effectiveness of a Synthetic Phonics Programme in Teaching Word Reading, Spelling and Reading Comprehension: a Critical Review and EFL Pedagogical Implications.....	465
Nishonova Zuxra Voxidjon qizi	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslari: tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar.....	471
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Biologiya ta'limida o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholashni pedagogik kvalimetriya va zamonaviy psixometrik yondashuvlar asosida takomillashtirish.....	476
Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li	
Oiladagi nizolarni hal etishda mediatorlik faoliyatining ahamiyati.....	483
Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	
Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslari	487
Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich	
Kompyuter tarmoqlari mavzusini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari	493
Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi	
Bo'lajak filologlarni tayyorlashda art-menejment asosida pedagogik boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish texnologiyasi	499
Qo'chqarova Feruza Maxamatqosimovna	
Kasbiy sifatlarni rivojlantirishda qadriyat yo'naltirilganlik va motivatsion soha o'zaro bog'liqligi.....	503
Qo'shmuratov Bekzod Abduraimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimi	509
Rustamova Manzura Mirkamalovna	
"Kelajak soatlari" darslarida yuqori sinf o'quvchilarining o'zini-o'zi tarbiyalash (self-education) kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....	517
Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi	
Generativ sun'iy intellekt vositalari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari.....	523
Teshaboyev Ilxomjon Inomjon o'g'li	



AQLI ZAIF BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QUV-AMALIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA SENSOR INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna

Andijon shahar 12-sonli ixtisoslashtirilgan maktab logopedi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Sensor integratsiya yondashuvi orqali bolalarning sezgi tizimlarini muvofiqlashtirish, diqqatni jamlash, harakat va idrok jarayonlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari maxsus ta'lim samara-dorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sensor integratsiya, aqliy rivojlanishida nuqson, boshlang'ich ta'lim, o'quv-amaliy faoliyat, maxsus peda-gogika, individual yondashuv, kognitiv rivojlanish.

Abstract: This article explores the improvement of methodology for using sensory integration in organizing educational and practical activities of primary school students with intellectual disabilities. The study analyzes how sensory integra-tion approaches can support the coordination of sensory systems, enhance attention, and improve perceptual and motor development. It also examines the creation of effective pedagogical conditions based on individualized instruction in inclusive primary education. The findings contribute to improving the effectiveness of special education practices.

Key words: sensory integration, intellectual disability, primary education, educational-practical activity, special pedagogy, individualized approach, cognitive development.

Аннотация: В данной статье рассматривается совершенствование методики использования сенсорной инте-грации в организации учебно-практической деятельности младших школьников с интеллектуальными нару-шениями. Анализируются возможности сенсорной интеграции для координации сенсорных систем, развития внимания, восприятия и двигательного развития детей. Также рассматриваются пути создания эффективных педагогических условий на основе индивидуального подхода в начальном образовании. Результаты исследо-вания способствуют повышению эффективности специального образования.

Ключевые слова: сенсорная интеграция, интеллектуальные нарушения, начальное образование, учебно-прак-тическая деятельность, специальная педагогика, индивидуальный подход, когнитивное развитие.

KIRISH

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun sifatli ta'lim sharoitlarini yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv jarayoniga moslashuvi, ularning bilish jarayonlarini faollashti-rish hamda amaliy faoliyatini samarali tashkil etish alohida pedagogik yondashuvni talab etadi.

Aqli zaif bolalarda sezgi tizimlarining to'liq yoki qisman buzilishi natijasida atrof-muhitni idrok etish, diqqatni jamlash, xotira va tafakkur jarayonlarida qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu sababli bunday o'quvchilar bilan ishlashda an'anaviy ta'lim usullari yetarli samara bermaydi. Mazkur holat maxsus pedagogikada yangi, samarali va ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishni talab etadi.

Sensor integratsiya metodikasi aynan shunday yondashuvlardan biri bo'lib, u bolaning sezgi tizimlari (ko'rish, eshitish, teginish, harakat va muvozanat) o'rtasidagi uyg'unlikni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu metodika orqali bolalarning o'quv-amaliy faoliyatga qiziqishi oshadi, ularning kognitiv jarayonlari faollashadi hamda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalari shakllanadi.



Shuningdek, boshlang'ich ta'lim bosqichida sensor integratsiya elementlaridan foydalanish o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, emotsional barqarorligini ta'minlash va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa maxsus ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiyadan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiyadan foydalanish masalasi maxsus pedagogika, psixologiya, ergoterapiya va rivojlantiruvchi ta'lim yo'nalishlari kesishmasida shakllangan ilmiy-metodik muammolardan biridir. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda bolaning bilish jarayonlari, harakat faoliyati, idrok etishi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini rivojlantirishda sensor tajribaning muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi.

Sensor integratsiya nazariyasining ilmiy asoslari Jean Ayres tadqiqotlari bilan bevosita bog'liq. Ayres (1972) *Sensory Integration and Learning Disorders* asarida sensor tizimlardan kelayotgan axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan maqsadga muvofiq foydalanish jarayonlarini o'rganib, sensor integratsiyaning bolaning o'rganish faoliyati bilan bog'liqligini asoslab bergan. Uning yondashuvida vestibulyar, propriozeptiv, taktil, ko'rish va eshitish tizimlaridan keluvchi axborotning muvofiqlashtirilgan qayta ishlanishi bolaning harakat va bilish faoliyati uchun muhim omil sifatida qaraladi.

Ayresning (2005) *Sensory Integration and the Child* asarida esa sensor tajribani bolaning kundalik faoliyati va rivojlanishi bilan bog'lash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Muallif sensor faoliyatni oddiy sezgi mashqlarining yig'indisi sifatida emas, balki bolaning atrof-muhitni anglash, harakatlarni rejalashtirish va faoliyatga moslashish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlovchi jarayon sifatida talqin qiladi. Mazkur qarash boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatiga sensor elementlarni kiritishning nazariy asosini tashkil etadi.

A. C. Bundy, S. J. Lane va E. A. Murray (2002) tomonidan ishlab chiqilgan *Sensory Integration: Theory and Practice* asarida sensor integratsiya nazariyasi va uni amaliyotga tatbiq etish masalalari tizimli ravishda yoritilgan. Mualliflar sensor jarayonlarni bolaning faoliyatni bajarishi, moslashuvi va mustaqilligini ta'minlash bilan bog'laydilar. Ushbu yondashuv aqliy rivojlanishida cheklanishlari bo'lgan bolalar uchun topshiriqlarni ularning individual sensor ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

J. Case-Smith va J. C. O'Brien (2015) *Occupational Therapy for Children and Adolescents* asarida bolalar rivojlanishida harakat, sensor faoliyat va kundalik ko'nikmalarining o'zaro aloqasi keng yoritilgan. Ushbu manbada faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati ko'rsatilib, bolaning real faoliyat jarayonida ishtirok etishi uning funksional ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaraladi. Bu fikr boshlang'ich ta'limda sensor integratsiyani o'quv-amaliy topshiriqlar bilan birlashtirish zarurligini asoslash imkonini beradi.

Sensor rivojlanish masalasini bolaning umumiy intellektual va psixologik taraqqiyoti bilan bog'lashda J. Piagetning (1952) qarashlari ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Piaget bolaning bilimi va tafakkuri faol harakat hamda predmetlar bilan bevosita munosabat jarayonida shakllanishini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, o'quv jarayonida predmetlarni ushlab ko'rish, taqqoslash, ajratish, joylashtirish, harakatlantirish kabi amaliy faoliyat turlaridan foydalanish bolaning bilish tajribasini boyitishga xizmat qiladi.

L. S. Vygotskiy (1978)ning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi esa maxsus ta'limda bolaning imkoniyatlarini pedagogik yordam orqali kengaytirish masalasini tushuntirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Vygotskiy ta'lim va rivojlanishning o'zaro bog'liqligini, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va kattalar ko'magining muhimligini asoslagan. Mazkur yondashuv asosida aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga sensor-amaliy topshiriqlarni bosqichma-bosqich, individual imkoniyatlariga mos holda taqdim etish samarali pedagogik shartlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Mahalliy pedagogik adabiyotlarda ham aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning mazmuni, metodlari va tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratilgan. Karimov (2019) Maxsus pedagogika asoslari asarida maxsus ta'limning nazariy va amaliy masalalari, rivojlanishida turli cheklanishlari bo'lgan bolalar bilan pedagogik ish olib borish tamoyillari yoritilgan. Mazkur qarashlar sensor integratsiya usullarini maxsus pedagogik jarayonga kiritishda bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

A. Hasanov (2022)ning Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash metodikasi asarida ushbu toifadagi bolalarning ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, ularning bilish va amaliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar bayon etilgan. Ushbu manba o'quv topshiriqlarini soddadan murakkabga tamoyili asosida tashkil etish, ko'rgazmalilik va amaliy faoliyatdan foydalanish hamda individual yondashuvni ta'minlash jihatidan tadqiqot uchun muhim metodik asos bo'la oladi.



B. Murodov (2021)ning Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar asarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ta'lim jarayonini amaliy yo'nalishda tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu yondashuv sensor integratsiya elementlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, ya'ni ko'rish, eshitish, taktil va harakat faoliyatlarini birgalikda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar sensor integratsiyaning bolaning idrok etishi, harakat faoliyati, bilish jarayonlari va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Xorijiy tadqiqotlarda sensor integratsiyaning nazariy asoslari va terapevtik-amaliy imkoniyatlari yetarlicha yoritilgan bo'lsa, mahalliy adabiyotlarda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishning umumiy pedagogik va metodik jihatlari ko'proq ochib berilgan. Shu bilan birga, aynan aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiya vositalaridan tizimli va metodik foydalanish masalasi yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning ilmiy-metodik yo'nalishi sensor integratsiyaning nazariy imkoniyatlarini boshlang'ich maxsus ta'lim amaliyoti bilan bog'lash, sensor mashqlarni o'quv-amaliy topshiriqlarga integratsiyalash, o'quvchilarning individual sensor ehtiyojlarini hisobga olish hamda sensor integratsiya asosida o'quv-amaliy faoliyatni tashkil etishning samarali metodikasini ishlab chiqishdan iborat bo'lishi mumkin. Bu esa mavjud ilmiy qarashlarni amaliy jihatdan boyitish va maxsus boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning faolligi hamda mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiya metodikasini takomillashtirish masalasi ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida o'rganildi.

Maxsus pedagogika, psixologiya va sensor integratsiya nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu orqali muammoning ilmiy asoslari va mavjud yondashuvlar o'rganildi.

Boshlang'ich sinfdagi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning dars jarayonidagi faoliyati, sezgi reaksiyalari, diqqat barqarorligi va o'quv topshiriqlarini bajarishdagi xatti-harakatlari bevosita kuzatildi.

Sensor integratsiya elementlarini o'z ichiga olgan maxsus mashg'ulotlar tashkil etildi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi, motorika, idrok va ijtimoiy moslashuv darajasidagi o'zgarishlar baholandi.

O'quvchilarning boshlang'ich psixologik va pedagogik holatini aniqlash uchun turli testlar va amaliy topshiriqlardan foydalanildi. Bu metodlar orqali individual rivojlanish xususiyatlari o'rganildi.

Sensor integratsiya asosida o'qitilgan guruh natijalari an'anaviy usulda o'qitilgan guruh bilan solishtirildi va samaradorlik darajasi tahlil qilindi.

Tadqiqot boshlang'ich ta'lim jarayonida, maxsus sinf sharoitida olib borildi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, metodikaning samaradorligi asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida sensor integratsiya metodikasini qo'llash orqali aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatidagi o'zgarishlar tajriba va nazorat guruhlari asosida o'rganildi. Tajriba guruhi bilan ishlashda sensor integratsiya mashqlari tizimli ravishda qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim usullari saqlab qolindi.

Olingan natijalar o'quvchilarning diqqat barqarorligi, idrok tezligi, motorika rivojlanishi va topshiriqlarni mustaqil bajarish ko'rsatkichlarida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval: O'quvchilarning rivojlanish ko'rsatkichlari (tajriba boshida va yakunida)

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (boshlanishi)	Tajriba guruhi (yakuni)	Nazorat guruhi (yakuni)
Diqqat barqarorligi (%)	48%	82%	60%
Idrok tezligi (%)	45%	78%	58%
Mayda motorika (%)	50%	85%	62%
Mustaqil topshiriq bajarish (%)	42%	80%	55%

2-jadval: O'quv faoliyatidagi umumiy o'sish dinamikasi

Guruh	Boshlang'ich daraja (%)	Yakuniy daraja (%)	O'sish ko'rsatkichi (%)
Tajriba guruhi	46%	81%	+35%
Nazorat guruhi	47%	59%	+12%



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sensor integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning kognitiv va amaliy faoliyatini sezilarli darajada yaxshilagan. Xususan, tajriba guruhida diqqat barqarorligi 34% ga, mayda motorika rivojlanishi esa 35% ga oshgan. Bu ko'rsatkichlar sensor integratsiya mashqlari bolalarning sezgi tizimlarini faollashtirish orqali o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Nazorat guruhida ham o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar ancha past bo'lib, an'anaviy ta'lim usullarining cheklangan samaradorligini ko'rsatadi.

Sensor integratsiya metodikasi asosida olib borilgan mashg'ulotlar bolalarning sezgi tizimlari o'rtasidagi muvofiqlikni yaxshilab, ularning o'quv jarayoniga moslashuvini osonlashtirdi. Ayniqsa, harakatli o'yinlar, taktil mashqlar va muvozanatni rivojlantiruvchi faoliyatlar o'quvchilarda ijobiy emotsional holatni shakllantirdi va dars jarayonidagi faollikni oshirdi.

Shu bilan birga, individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar har bir o'quvchining rivojlanish darajasiga moslashtirilgani sababli samaradorlik yanada yuqori bo'ldi.

Umuman olganda, olingan natijalar sensor integratsiya metodikasini boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiya metodikasidan foydalanish sezilarli pedagogik samaradorlikka ega. Olingan empirik ma'lumotlar tajriba guruhida kognitiv, sensor va motor rivojlanish ko'rsatkichlarining ancha yuqori darajada o'sganligini tasdiqladi.

Avvalo, sensor integratsiya mashg'ulotlari o'quvchilarning sezgi tizimlari o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'pincha sensor axborotni qayta ishlashda qiyinchiliklar kuzatiladi, bu esa diqqatning beqarorligi, tez charchash, topshiriqlarni to'liq tushunmaslik kabi holatlarga olib keladi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan taktil, vestibulyar va proprioseptiv mashqlar ushbu muammolarni yumshatishga yordam berdi.

Tajriba guruhida diqqatning barqarorlashuvi va topshiriqlarni bajarishdagi aniqlikning oshishi ayniqsa muhim natija sifatida qayd etildi. Bu holat sensor integratsiya yondashuvi bolaning markaziy nerv tizimi darajasida axborotni qayta ishlash jarayonini faollashtirishini ko'rsatadi. Natijada o'quvchilar dars jarayonida ko'proq e'tiborli bo'lib, topshiriqlarga nisbatan ijobiy munosabat bildirishdi.

Shuningdek, o'quvchilarda mayda motorika ko'nikmalarining rivojlanishi ham sezilarli darajada yaxshilandi. Bu holat yozuv ko'nikmalarini shakllantirish, predmetlar bilan ishlash va amaliy topshiriqlarni bajarishda o'z aksini topdi. Ayniqsa, qo'l barmoqlari harakatini rivojlantiruvchi mashqlar (plastilin bilan ishlash, konstruksiya yig'ish, sensor materiallar bilan faoliyat) samarali natija berdi.

Tadqiqot davomida emotsional holat va motivatsiya darajasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Sensor integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi, dars jarayoniga faolroq jalb etilishiga sabab bo'ldi. Bu esa maxsus ta'lim jarayonida emotsional qo'llab-quvvatlashning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, individual yondashuvning qo'llanilishi natijalarni yanada mustahkamladi. Har bir o'quvchining sensor ehtiyojlari va rivojlanish darajasi hisobga olingan holda mashg'ulotlar tashkil etilgani ta'lim jarayonining samaradorligini oshirdi. Bu yondashuv differensial ta'lim tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Nazorat guruhi bilan solishtirganda, tajriba guruhida o'sish ko'rsatkichlarining yuqoriligi sensor integratsiya metodikasining an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi. Biroq bu metodika to'liq mustaqil tizim emasligi, balki maxsus pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilganda yanada yuqori natija berishi ham aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Jumladan, mashg'ulotlarni muntazam va uzoq muddatli tashkil etish zarurati, maxsus jihozlar va o'qituvchining yuqori kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan ehtiyoj metodikaning keng joriy etilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, sensor integratsiya metodikasi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Ushbu yondashuvni ta'lim jarayoniga keng joriy etish maxsus ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiya metodikasidan foydalanishning pedagogik samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Olib borilgan tahlillar, kuzatishlar hamda tajriba-sinov ishlari natijasida sensor integratsiya yondashuvi maxsus ta'lim jarayonida muhim o'rin tutishi ilmiy asosda tasdiqlandi.



Tadqiqot natijalariga ko'ra, sensor integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning diqqatini jamlash, idrok jarayonlarini faollashtirish, mayda va yirik motorika ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil o'quv faoliyatini bajarish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, tajriba guruhida kuzatilgan yuqori o'sish ko'rsatkichlari ushbu metodikaning an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, sensor integratsiya mashqlari o'quvchilarning emotsional holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Bu esa o'quv motivatsiyasini kuchaytirish va ta'lim jarayoniga faol jalb etishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. O'quvchilarda o'ziga ishonchning ortishi va mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarining shakllanishi ham muhim natijalardan biri sifatida qayd etildi.

Tadqiqot davomida individual yondashuvning ahamiyati ham alohida ta'kidlandi. Har bir o'quvchining sensor ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar ta'lim jarayonining samaradorligini yanada oshirdi. Bu holat differensial va inklyuziv ta'lim tamoyillarining amaliyotdagi muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Olingan natijalar sensor integratsiya metodikasini boshlang'ich ta'lim tizimida, ayniqsa, maxsus ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida keng qo'llash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Biroq ushbu metodikani samarali joriy etish uchun pedagoglarning maxsus tayyorgarligi, zarur didaktik va sensor jihozlar bilan ta'minlanishi hamda muntazam amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sensor integratsiya metodikasining aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Mazkur yondashuvni ta'lim jarayoniga keng joriy etish maxsus ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash hamda ularning kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayres, A. J. (2005). *Sensory Integration and the Child*. Los Angeles: Western Psychological Services.
2. Dunn, W. (2014). *Sensory Profile Manual*. San Antonio: Pearson.
3. Jean Ayres. (1972). *Sensory Integration and Learning Disorders*. California: University of Southern California Press.
4. Case-Smith, J., & O'Brien, J. C. (2015). *Occupational Therapy for Children and Adolescents*. Elsevier.
5. Bundy, A. C., Lane, S. J., & Murray, E. A. (2002). *Sensory Integration: Theory and Practice*. F. A. Davis Company.
6. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press.
7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.
8. Frostig, M. (1968). *Visual Perception and Learning*. Chicago: Follett.
9. UNESCO (2020). *Inclusive Education and Learning for All*. Paris: UNESCO Publishing.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2021). *Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi*. Toshkent.
11. Karimov, I. (2019). *Maxsus pedagogika asoslari*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
12. Hasanov, A. (2022). *Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
13. Murodov, B. (2021). *Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
14. Salomon, G. (1993). *Distributed Cognitions*. Cambridge University Press.
15. Berk, L. E. (2013). *Child Development*. Pearson Education.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.